

AXSIKENTNING MINTAQAVIY DAVLATCHILIK TIZIMIDAGI O‘RNI VA EVOLYUSIYASI

G.V. Rafiqova

*Namangan davlat pedagogika instituti,
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi PhD*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21041595>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi Farg‘ona vodiysining yirik shahar markazlaridan biri bo‘lgan Axsikent shahrining mintaqaviy davlatchilik tizimlari shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni tarixiy-xronologik tartibda chuqur tahlil qilinadi. Dovon davlati, Qang‘ va Kushon ta’siri davri, Qoraxoniylar, mo‘g‘ullar va temuriylar, shuningdek, Qo‘qon xonligi davrlarida Axsikentning siyosiy-ma‘muriy, iqtisodiy, harbiy-mudofaa va madaniy mavqei batafsil ko‘rib chiqiladi. Shahar maqomining o‘zgarib borishi mintaqadagi davlatchilik tizimining umumiy evolyusiyasi, markazlashuv va policentriklashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi va arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, Dovon davlati, Qoraxoniylar, Qarluq, Samoniylar, Mo‘g‘ullar, Temuriylar, Qo‘qon xonligi, davlatchilik tizimi, mintaqaviy markaz, shaharsozlik, ma‘muriy boshqaruv, arxeologik qatlamlar.*

Markaziy Osiyo davlatchilik tarixini o‘rganishda mintaqaviy markazlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatchilik tizimi, qoida bo‘yicha, yagona poytaxt atrofida emas, balki bir-biri bilan ma‘muriy, iqtisodiy va harbiy aloqalar orqali bog‘langan tayanch shaharlar tarmog‘i shaklida shakllanadi. Farg‘ona vodiysining shimoliy-g‘arbiy qismida, Sirdaryoning yuqori oqimi bo‘yida joylashgan Axsikent shahri aynan shunday tayanch nuqtalardan biri sifatida ming yillardan ortiq tarixga ega bo‘lib, vodiy va undan tashqaridagi siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynagan. Shaharning geografik joylashuvi uning tarixiy taqdirini ko‘p

jihatdan belgilab berdi: u, bir tomondan, Farg‘ona vodiysini Toshkent vohasi va Ustrushona bilan bog‘lovchi savdo-transport yo‘llari kesishmasida, ikkinchi tomondan, vodiyning shimoliy chegaralarini ko‘chmanchi qabilalar bosqinidan himoya qiluvchi strategik mudofaa chizig‘ida joylashgan edi. Aynan shu omillar Axsikentni nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy markazga aylantirdi.

Eramizdan avvalgi II asrga oid xitoy yilnomalarida - xususan, Chжан Szyanning Farg‘ona vodiysiga sayohati ta’rifida - tilga olingan Dovon (Dayuan) davlati Farg‘ona vodiysi hududida shakllangan ilk yirik siyosiy birlashma hisoblanadi. Manbalarda Dovon davlati yetmishdan ortiq yirik va kichik shaharlarga ega bo‘lgan, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega davlat sifatida tasvirlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Axsikent hududidagi qadimgi madaniy qatlamlar aynan shu davrga, ya’ni Dovon davlati gullab-yashnagan davrga to‘g‘ri keladi.

Dovon davri davlatchiligi o‘ziga xos ikki bosqichli markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, vodiyning turli qismlarida joylashgan shahar-markazlar orqali ma’muriy nazoratni amalga oshirgan: poytaxt shahar siyosiy qarorlar markazi, vodiyning chekka hududlaridagi yirik shaharlar esa mahalliy nazorat va mudofaa vazifasini bajargan. Axsikentning geografik joylashuvi-vodiyning shimoliy-g‘arbiy, strategik ahamiyatga ega nuqtasida bo‘lishi unga harbiy-mudofaa va savdo aloqalarini nazorat qilish vazifasini yuklagan.

Arxeologik qazishmalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu davrda shahar atrofida kuchli mudofaa devorlari, ichki qal’a (shahriston) va tashqi shahar (rabod) tarkibiy qismlariga ega bo‘lgan murakkab shaharsozlik tizimi shakllangan. Bu tizim keyinchalik o‘rta asr islom davri shaharsozligiga ham asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday qilib, dastlabki bosqichdayoq Axsikent mintaqaviy boshqaruv tizimining mustahkam tarkibiy bo‘g‘ini sifatida shakllana boshlagan va bu maqom keyingi asrlarda yanada mustahkamlandi.

IX–X asrlarda, Samoniylar davlati tarkibida Farg‘ona viloyati alohida ma‘muriy birlik sifatida boshqarilgan va Axsikent bu viloyatning markazi (bosh shahri) hisoblangan. Bu davrda shahar yanada kengaydi, hunarmandchilik va savdo rivojlandi, shahar atrofida ko‘plab qishloq aholi punktlari va karvonsaroylar barpo etildi. Bu jarayon Axsikentning nafaqat ma‘muriy, balki iqtisodiy poytaxt sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

XI–XII asrlarda, Qoraxoniylar davlati davrida Axsikent o‘z taraqqiyotining yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda shahar Farg‘ona viloyatining bosh shahri (poytaxti) maqomiga ega bo‘lib, Qoraxoniylar davlati tarkibida muhim ma‘muriy-siyosiy markaz vazifasini bajardi. O‘rta asr geograflari — Ibn Havqal, Istaxriy, al-Muqaddasiy va boshqa mualliflarning asarlarida Axsikent yirik, mustahkam devorlar bilan o‘ralgan, rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish) va savdo infratuzilmasiga ega, bozorlari, jome masjidi va saroyiga ega shahar sifatida tasvirlangan.

Mintaqaviy davlatchilik tizimi nuqtai nazaridan, bu davrda Axsikent quyidagi vazifalarni bajargan:

- viloyat hokimi (volyat boshqaruvchisi) qarorgohi sifatida markaziy hokimiyat (Qoraxoniylar saroyi, keyinchalik Buxoro yoki Samarqanddagi markaz) bilan mahalliy hududlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini o‘tagan;

- soliq yig‘ish (xaroj, zakot), harbiy safarbarlik (lashkar to‘plash) va Buyuk Ipak yo‘lining Farg‘ona tarmog‘idagi karvon yo‘llari xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha asosiy ma‘muriy markaz bo‘lgan;

- pul muomalasi markazi sifatida o‘z tanga zarbxonasiga ega bo‘lgan, bu esa shaharning iqtisodiy mustaqilligi va mintaqadagi nufuzini ko‘rsatadi;

- diniy-ma‘rifiy hayotda ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, jome masjidлари, madrasalar va xonaqohlar tarmog‘i orqali mafkuraviy birlikni mustahkamlashga, shuningdek, islom huquqi (fiqh) maktablarining mintaqaviy markazi sifatida ulamolar tayyorlashga xizmat qilgan.

1219–1221-yillarda boshlangan mo‘g‘ullar istilosi natijasida Farg‘ona vodiysining ko‘plab shaharlari, jumladan Axsikent ham qattiq vayronaga uchradi. Manbalarda qayd etilishicha, shahar aholisi qirilgan, mustahkam istehkomlar buzilgan va shaharning iqtisodiy hayoti uzoq vaqt davomida tiklanmagan. Bu voqea mintaqaviy davlatchilik tizimida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi - avvalgi markazlashgan, bir markazga bog‘langan ma‘muriy tizim parchalanib, vodiyni siyosiy og‘irlik markazi asta-sekin boshqa shaharlarga ko‘chish jarayoni boshlandi.

XIV–XV asrlarda, Temuriylar davlati davrida Farg‘ona vodiysi Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegara mintaqasi sifatida nisbatan mustaqil boshqarilgan. Axsikent o‘z ahamiyatini qisman saqlab qolgan bo‘lsa-da, endi u ilgorigidek vodiyni yagona siyosiy markazi emas, balki mintaqaviy tizimning bir nechta tayanch nuqtalaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda Andijon kabi shaharlarning siyosiy vazni ortib bordi, bu esa Farg‘ona vodiysi davlatchilik tizimining ko‘p markazli (policentrik) tuzilishga o‘tishini anglatardi.

Shu bilan birga, Sirdaryo o‘zanining o‘zgarishi va seysmik faollik (zilzilalar) natijasida Axsikentning dastlabki o‘rni vaqt o‘tishi bilan yashash uchun noqulay bo‘lib qoldi, bu esa shahar aholisining qisman ko‘chishiga va yangi o‘rinlarda — hozirgi Eski Axsi hududida — kichikroq aholi punkti shakllanishiga olib keldi. Shunday qilib, shahar maqomining pasayishi mintaqadagi davlatchilik tizimining ko‘p markazli tuzilishga o‘tishining va tabiiy-geografik omillarning siyosiy geografiyaga ta’sirining yorqin ko‘rsatkichi bo‘ldi.

XVIII asrning birinchi yarmida shakllangan Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy markazi yangi poytaxt — Qo‘qon shahriga ko‘chgan edi. Xonlik o‘z hududini bekliklar (viloyatlar)ga bo‘lib boshqargan, har bir beklik markazida hokim (bek) o‘tirgan va markaziy hokimiyatga soliq va harbiy kontingent yetkazib berish bilan shug‘ullangan.

Shu davrda Axsikent o‘rnida va atrofida shakllangan aholi punktlari (jumladan, hozirgi Eski Axsi va unga tutash hududlar) hududiy boshqaruv tizimida

bekliklar yoki ularning tarkibidagi ma'muriy okruglar markazlari sifatida faoliyat yuritishni davom ettirdi. Manbalarda Namangan bekligi tarkibida bu hudud muhim qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik markazi sifatida tilga olinadi, biroq u endi mustaqil siyosiy markaz emas, balki yirik viloyat markazi (Namangan)ga bo'ysunuvchi ma'muriy bo'linma edi.

Bu davrda Axsikentning ahamiyati endi siyosiy poytaxt emas, balki tarixiy-madaniy meros markazi, ziyoratgoh (avliyolar maqbaralari atrofida shakllangan) va mahalliy ma'muriy bo'linma sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, shahar mintaqaviy davlatchilik tizimida o'z o'rnini saqlab qoldi, biroq uning funksional vazifasi davr talablariga moslashib tubdan o'zgardi — siyosiy va iqtisodiy poytaxtdan mahalliy boshqaruv, qishloq xo'jaligi va madaniy-ma'naviy markazga aylandi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan to'rt asosiy davr — Dovon, Samoniy-Qoraxoniylar, Mo'g'ul-Temuriy va Qo'qon davrlari — Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o'rnini uch xil bosqichda tasniflashga imkon beradi: (1) shakllanish va mustahkamlanish bosqichi (Dovon davri), (2) yuksalish va bosh markaz bosqichi (Samoniy-Qoraxoniylar davri), (3) inqiroz va qayta moslashish bosqichi (Mo'g'ul-Temuriy va Qo'qon davrlari).

Bu bosqichlarning har biri mintaqadagi umumiy siyosiy-iqtisodiy jarayonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan: markazlashgan davlatlar davrida (Dovon, Qoraxoniylar) Axsikent kabi strategik joylashgan shaharlar yetakchi maqomga ega bo'lgan, parchalanish va tashqi bosqinlar davrida (Mo'g'ullar) esa bunday shaharlar o'z ahamiyatini yo'qotib, kichikroq, ammo barqarorroq markazlarga o'rin bo'shatgan. Bu qonuniyat nafaqat Axsikent, balki butun Farg'ona vodiysi va Markaziy Osiyo shaharsozligi tarixiga xos umumiy tendensiya hisoblanadi.

Arxeologik tadqiqotlar (xususan, M.A. Bubnova va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan olib borilgan qazishmalar) shuni tasdiqlaydiki, shahar maydonining kengayishi va qisqarishi, mudofaa

devorlarining qayta qurilishi yoki tashlab ketilishi har bir davrdagi siyosiy ahamiyat darajasiga bevosita mos keladi. Bu esa yozma manbalardagi ma’lumotlarni arxeologik dalillar bilan o‘zaro tasdiqlash imkonini beradi va ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshiradi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni statik emas, balki tarixiy jarayonlar ta’sirida izchil evolyutsiyaga uchragan dinamik hodisa hisoblanadi. Dovon davlati davrida harbiy-strategik tayanch nuqta, Samoniy-Qoraxoniy davrida Farg‘ona viloyatining bosh ma’muriy va iqtisodiy markazi, mo‘g‘ullar va temuriylar davrida policentrik tizimning tarkibiy qismi, Qo‘qon xonligi davrida esa mahalliy boshqaruv va madaniy meros markazi sifatida shakllangan bosqichlar shahar maqomining bosqichma-bosqich transformatsiyasini aks ettiradi.

Axsikentning bu evolyutsion yo‘li mintaqaviy davlatchilik tizimlarining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini — markazlashuv va parchalanish, siyosiy maqomning iqtisodiy va madaniy maqomga o‘tishi, tabiiy-geografik omillarning siyosiy geografiyaga ta’siri kabi jarayonlarni — o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli, shaharning arxeologik va yozma manbalar asosidagi keyingi tadqiqotlari, xususan, har bir tarixiy davrga oid madaniy qatlamlarning aniq xronologik chegaralarini belgilash, mintqa davlatchilik tarixini chuqurroq tushunish, shuningdek, Axsikentni turizm va ta’lim maqsadlarida targ‘ib qilish uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. -М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952.
2. Бубнова М.А. Археологические исследования средневекового Ахсикента. - Ташкент: Фан, 1985.

3. Зияев Х. Фарғона тарихи: давлатчилик ва маданий мерос. - Тошкент: Фан, 1998.
4. Карев Ю. Городская культура Средней Азии в эпоху Караханидов. - Ташкент, 2015.
5. Маъмажонов А. Axsikent - Фарғона маданий ёдгорлиги. - Тошкент: Шарқ, 2010.
6. Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-жилд. - Тошкент: O‘zbekiston, 2009.
7. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения, т. I. - М.: Наука, 1963.